

ANATOMIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Umirov Nurulla Usanovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

nurullaumirov65@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Odam anatomiyasi” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, subyektiv, “Keys”, “Insert”, “Klaster”, “Charxpalak”, “Aqliy hujum”, Venn diagrammasi, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, reproduktiv, produktiv, o‘qitish metodlari.

ANNOTATION

This article describes the use of modern pedagogical technologies in the teaching of "Human Anatomy".

Key words: Innovation, subjective, "Case", "Insert", "Cluster", "Charkhpalak", Brainstorming, Venn diagram, "Working in small groups", "Chain of terms", reproductive, productive, teaching methods.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описано использование современных педагогических технологий в преподавании «Анатомии человека».

Ключевые слова: Инновация, субъект, «Кейс», «Вставка», «Кластер», «Чархпалак», «Мозговой штурм», диаграмма Венна, «Работа в малых группах», «Цепочка терминов», репродуктивный, продуктивный, методы обучения.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktyabrdagi PF 5847-son hamda” 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” daamalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020 yil 2 martdagi PF5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlariga asosan, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish kabi dolzarb masalalar qo‘yilgan.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma, malaka darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Odam anatomiyasi fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali uzluksiz ta’lim samaradorligini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Pedagogik texnologiyalar — ta’lim berish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o‘quv vositalari bo‘lib, u o‘ziga xos didaktik va uslubiy asosga ega.

Odam anatomiyasi fanining o‘qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlari asosida uch turdagi o‘quv mashg‘ulotlariga, ya’ni ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks holda qo‘llash tavsiya etiladi.

Innovatsiya texnologiyalari o‘qitish jarayonida yuqori malakali, raqobatbardosh o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omil ko‘nikmalarini shakllantirish, metodik mahoratini ko‘tarish, o‘qituvchi pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish omili bo‘lib qolmoqda. Anatomiya fanini o‘qitish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan ba’zi bir texnologiyalarga tavsifnoma berib, ba’zilarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida metodik tavsifnoma berib o‘tamiz:

“**Keys-stadi**” (inglizcha keys - to‘plam, aniq vaziyat, study -ta’lim) keysda bayon qilingan va talabalarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammolivaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta’lim uslubidir. Keys-stadi - ta’lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o‘rganishni voqelikka bog‘lab qo‘yadi: sizga muammoni hal etish bo‘yicha vaziyatni tahlil qilish, tahminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo‘shimcha ma’lumotni yig‘ish, tahminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

“**Tarmoqlar**” (Klaster) metodi Bu usulning ma’nosi — fikrlaming tarmoqlanishi. «Klaster» texnologiyasi pedagogik strategiya bo‘lib, u o‘quvchi - talabalarni biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam beradi. O‘quvchitalabalarni mavzuga taalluqli

tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchi-talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“**Charxpalak**” texnologiyasi o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

“**Aqliy hujum**” - muammolarni hal qilishda keng qo'llanadigan anchagina mashhur metoddir. Bu usul katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga ko'p sonli yechimlar topishda yordam beradi

“**Atamalar zanjiri**” bu atamalar va ularning ta'riflari bo'lib, ulardan o'qituvchi o'tgan mavzuni yakunlash, yangi o'rganilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash maqsadida darsning bir qismida foydalanganligi sababli, lokal texnologiyalari guruhiga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur texnologiyadan ta'lim tarbiya jarayonida foydalanishga bir necha usulda yondashish mumkin: o'quvchilar kichik guruhga ajratilib, guruh a'zolaridan kichik konsultant tayyorlanadi. Kichik konsultant unga berilgan topshiriqdagi atamalar asosida guruhning a'zolarini kartochka vositasida baholaydi. Bunda o'quvchilar aytilgan atamalarning izohini aytishni yo'ki izohga qarab atamani aniqlashi mumkin. Har bir to'g'ri javob uchun kartochka berilganligi sababli, kartochkalar soni ularning to'plagan balini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda Anatomiya darslari nazariy, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lib, butun dars davomida o'tgan mavzuni so'rab baholash, yangi mavzuni tushunturish va mustahkamlash uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi chunki pedagogik texnologiyalar darsning muayyan qismida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ta'lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847-сон 08.10 2019 й. 21бет.

- 2.**“Таълимда инновацион технологиялар”//Ишмухамедов Р., ва б. Тошкент -2008 й.-3 б.
- 3.** Tolipova J.O., Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Metodik qo‘llanma «O‘qituvchi», T.: 2013.
- 4.** Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya ta‘limi texnologiyalari.T . «O‘qituvchi» 2004.y
- 5.**Ibodova Mahfuza Namozovna CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR THE USE OF INTEGRATIVE TECHNOLOGIES FOR TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES IN ACADEMIC LYCEUMS European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852
- 7.**Umirov Nurulla Usanovich “ANATOMIYA DARSLARINI O‘QITISHDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH” Multidisciplinary Scientific Journal Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 3 | 2023
- 8.** Sanaeva Lola Shukurboyevna “O‘ZBEKISTONDA PISA TADQIQOTLARIGA TAYYORGARLIK JARAYONIDA SINGAPUR TA‘LIM TIZIMINING YUTUQLI TOMONLARINI O‘RGANISHINING AFZALLIKLARI” TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TARAQQIYOT mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 27-28-sentabr, 2024 yil. 607-612 betlar.
- 9.**Umirov Nurulla Usanovich “ANATOMIYA DARSLARIDA LOKAL PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH” “PEDAGOGS” international research journal Volume-31, Issue-2, April – 2023 ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
- 10.**Umirov Nurulla Usanovich., Istamov To‘lqin Olimjon o‘g‘li “QON MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL TA‘LIM METODLARIDAN FOYDALANISH” Multidisciplinary Scientific Journal Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2023
- 11.**Umirov Nurulla Usanovich., Usanov Ulug‘bek Nurulla o‘g‘li “O‘QUV JARAYONI SAMARADORLIGIDA DARS SONI VA DARS JADVALLARI GIGIYENASINING O‘RNI” JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS Volume–26_Issue-2_April_2023